

NAMANGAN VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-oktabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 69-227-84-95*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyoqvatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 316 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 88 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 230 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-oktabr oyida tumanlarning chakana savdo tovar aylanmasi 18 671,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 110,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 437,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 134,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 17 233,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 146,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,5 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	18 671,1	110,0
Namangan shahar	7 710,0	112,9
tumanlar:		
Mingbuloq	497,1	105,9
Kosonsoy	898,5	107,7
Namangan	723,6	106,9
Norin	987,8	106,8
Pop	1 194,4	111,7
To'raqo'rg'on	1 193,2	109,9
Uychi	945,6	107,0
Uchqo'rg'on	812,6	107,3
Chortoq	794,5	106,9
Chust	1 228,2	107,3
Yangiqo'rg'on	939,5	107,1


2024- yilning yanvar-oktabr oyida 2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan tumanlarning Namangan sh. (112,9 %), Pop (111,7 %) va To'raqo'rg'on (109,9 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-oktabr)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024 yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil qildi.


2024- yil yanvar-oktabr uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-oktabr oyida o'sish sur'ati 110,0 % ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

Ulushi, foizda



Namangan viloyatida

chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 41,3 % bilan 7 710,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mingbuloq 2,7 % bilan 497,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 17 233,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 8,4 % ga oshdi. Namangan viloyatida miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,3 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 34,0 % ga o'sdi va 1 437,7 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,7 % ulushiga to'g'ri keldi.




112,2	To'raqo'rg'on
110,4	Pop Namangan sh.
110,5	Namangan sh.
108,9	Uchqo'rg'on
108,8	Mingbuloq
107,5	Kosonsoy

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

256,5	Chortoq
156,3	Namangan sh.
142,4	Yangiqo'rg'on
128,1	Pop
126,2	Kosonsoy
110,7	Uychi
109,5	Namangan

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (99,2 %), Kosonsoy(98,9 %), Uchqo'rg'on(98,1 %), Mingbuloq(97,4 %), va Yangiqo'rg'on(96,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 7,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Namangan shahar (10,0 %), Pop(8,6 %), Chust (7,6 %), To'raqo'rg'on (7,5 %), tumanlarnida kuzatildi.

7,7 %



92,3 %




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda



2024- yilning yanvar-oktabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 041,0 ming so'mni (2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 107,1 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'satkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (9 973,1 ming so'm), Norin 4 762,8 ming so'm) va Pop (4 249,6 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-oktabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	1718,1	120,9
Namangan sh.	502,1	107,0
tumanlar:		
Mingbuloq	48,5	112,9
Kosonsoy	66,8	158,3
Namangan	57,5	99,9
Norin	155,3	121,1
Pop	124,4	143,5
To'raqo'rg'on	203,8	113,2
Uychi	75,7	158,0
Uchqo'rg'on	92,9	123,3
Chortoq	140,4	141,7
Chust	164,6	140,0
Yangiqo'rg'on	86,1	115,7


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024- yil yanvar-oktabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-oktabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 146,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 113,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 718,1 mlrd so'mni (120,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 428,3 mlrd so'mni tashkil etdi (105,8 %).

2024-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 1 718,1 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (880,2 mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 428,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi – 1 290,4 mlrd so'm, qo'y va echkilar –123,6 mlrd so'mni, otlar –9,0 mlrd so'mni, parrandalar – 5,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 730,2 mlrd so'm  51,1 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 308,3 mlrd so'm  21,6 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 251,9 mlrd so'm  17,6 %
Qo'yilar 115,6 mlrd so'm  8,1 %	Otlar 9,0 mlrd so'm  0,63 %	Echkilar 8,0 mlrd so'm  0,55 %
Kurka, o'rdak, g'oz 4,1 mlrd so'm  0,27 %	Tovuqlar 0,9 mlrd so'm  0,069 %	Quyonlar 0,08 mlrd so'm  0,005 %
Qushlar 0,07 mlrd so'm  0,076 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 170 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 168 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
--	-------------------	---

Namangan viloyati

14 077,0

113,3

Namangan sh.

338,2

114,1

tumanlar:

Mingbuloq	9,2	109,6
Kosonsoy	7,4	108,0
Namangan	26,2	97,4
Norin	7,4	110,6
Pop	23,7	138,2
To'raqo'rg'on	10,1	110,3
Uychi	6,0	109,5
Uchqo'rg'on	9,2	107,9
Chortoq	8,7	108,2
Chust	69,3	101,1
Yangiqo'rg'on	7,2	108,7

2024- yilning yanvar-oktabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 14 077,0 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, Foizda
Namangan viloyati	3 544,4	117,7
Namangan sh.	2 665,2	121,9
tumanlar:		
Mingbuloq	17,7	148,6
Kosonsoy	6,8	126,2
Namangan	33,2	137,1
Norin	26,9	128,2
Pop	97,5	100,0
To'raqo'rg'on	10,5	130,3
Uychi	38,2	108,2
Uchqo'rg'on	2,7	115,3
Chortoq	14,9	133,9
Chust	614,1	102,1
Yangiqo'rg'on	16,5	227,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Namangan shahri (2 665,5 mlrd so'm), Chust (614,1 mlrd so'm) va Pop (97,5 mlrd so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




2024- yilning yanvar-oktabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 544,4 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 175,8 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 144,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 2 368,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 107,8 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda

227,4



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 13 185,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,3 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 10 568,2 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatida ushbu sektoring ulgurji savdo hajmidagi ulushi 80,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 508 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Pop(7,3), Chust(129,3), Namangan sh.(124,5) hududlarida kuzatildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	11 567,4	111,2
Namangan sh.	6 077,3	116,3
tumanlar:		
Mingbuloq	233,8	76,0
Kosonsoy	128,6	98,9
Namangan	298,1	100,3
Norin	434,9	104,5
Pop	212,6	106,7
To'raqo'rg'on	231,0	88,3
Uychi	285,2	80,2
Uchqo'rg'on	177,7	77,2
Chortoq	483,7	173,8
Chust	303,5	127,8
Yangiqo'rg'on	281,4	106,1